



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида**

**тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Наргиза Музафаровна Бабаева</b> Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
<b>Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев</b> Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова</b> Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
<b>Maksuda Valeriyevna Israilova</b> Sog'lomlashtirish turizmning mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
<b>Dilshod Usmanovich Ruzmanov</b> Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
<b>Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova</b> Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
<b>Фарход Абдихидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова</b> Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
<b>Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova</b> Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
<b>Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров</b> Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva</b> Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
<b>Parvina Asliddin qizi Xolmatova</b> Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
<b>Xasan Ibragimovich Turdibekov</b> O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
<b>Aziza Yusufbekovna Talibova</b> O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
<b>Нодир Нозимович Негматов</b> Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
<b>Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov</b> O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
<b>Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева</b> Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova</b> Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
<b>Gulshan Akmalovna Abduvohidova</b> Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

To‘rtinchidan, muammolarni hal qilishda guruhli qaror qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish.

Beshinchidan, resurslarni samarali rejalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish va uni strategik rejalashtirish bilan integratsiyalash.

Oltinchidan, korxonalarda strategik rejalashtirish tizimlarini joriy etish orqali uzoq muddatli maqsadlarga erishish samaradorligini oshirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Simon H. A. “Administrative Behavior: A Study of decision-making Processes in Administrative Organization.” 1997.
2. Keeney R. L., Raiffa, H. “Decisions with Multiple Objectives: Preferences and Value Trade-Offs”. 1993.
3. Mintzberg H., Raisinghani D., Theoret A. “The Structure of Unstructured Decision Processes”. 1976.
4. Karimov A. R. “Qaror qabul qilishning samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv yondashuvlari. 2018.
5. Yuldashev M. “Qaror qabul qilishning mintaqaviy strategiyalari: O‘zbekiston tajribasi”. 2020.
6. Mintzberg H. “The Rise and Fall of strategic planning”. Free press. 1994
7. Kaplan R. S, Norton D. P. “The balanced scorecard: translating strategy into action”. Harvard Business Review Press. 1996.
8. Robbins S. P, Coulter M. “Management”. Pearson Education. 2021.
9. Isломov J. A. “Qaror qabul qilish tizimlarini takomillashtirish”. Toshkent-Universitet nashriyoti. 2020.
10. Rustamova S. X. “Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini takomillashtirish”. 2024. Internet saytlar:
11. [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)
12. arxiv.uz

<p><b>Н.Усманова, М.Нишонова</b></p> <p><b>Анализ схем принятия решений и совершенствование управления в организациях</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В этой статье анализируется процесс принятия решений предприятиями и изучаются существующие проблемы. Даны предложения по совершенствованию управления и повышению эффективности принятия решений.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> принятие решений, совершенствование, организация, управление.</p>	<p><b>N.Usmanova, M.Nishonova</b></p> <p><b>Analysis of Decision-Making schemes and improvement of enterprise management</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyzes the decision-making process of enterprises and examines existing problems. Proposals have been made to improve management and enhance decision-making efficiency.</p> <p><b>Keywords:</b> decision-making, improvement, enterprise, management.</p>
---	--

**Gulshan Akmalovna Abdvohidova – SamISI assistent-stajyori**

**TASHKILOT INTELLEKTUAL RESURLARINI BOSHQARISH TAMOYILLARI**

**Annotatsiya.** Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari, zamonaviy biznes sharoitida tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada, intellektual resurslarni boshqarishning asosiy tamoyillari, ularning samarali ishlatilishi va tashkilotning umumiy strategiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada tashkilotlar uchun innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash, bilim va tajriba almashish jarayonlarini optimallashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** intellektual resurslar, bilimlar, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv samaradorligi, intellektual faoliyat, xodimlar malakasi, raqobatbardoshlik, intellektual salohiyat.

**Kirish.** Bugungi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarda yuqori samaradorlikka erishish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun intellektual resurslarni boshqarishning muhimlik darajasi oshib bormoqda. Tashkilotlar bu resurslardan samarali foydalanishlari orqali o‘z strategiyalarini shakllantirib, yangi imkoniyatlarga erishadi va bozordagi o‘rnini mustahkamlaydilar. Intellektual resurslarni boshqarish jarayoni faqatgina bilimlarni yig‘ish yoki ulardan foydalanish bilan cheklanmaydi, balki ularni tizimli ravishda rivojlantirish va

tashkilotning umumiy maqsadlariga erishish yo‘llarini yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada, intellektual resurslarni boshqarishning asosiy tamoyillari va ularni muvaffaqiyatli qo‘llashning usullari tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turli mualliflar intellektual kapital va intellektual resurslar tushunchalarini turlicha talqin qiladilar. Intellektual kapitalning dastlabki tadqiqotchilaridan A. Smit va J.S. Mill hisoblanadi. Ular gumanitar kapital tushunchasini kiritib, uni insonning mehnat qilish qobiliyati miqdori va sifatining umumlashgan tushunchasi sifatida ta’rifladilar.

MakKinzi instituti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, XXI asrda Yevropada 70% va AQShda 80% ish o‘rinlari ish izlovchilarning jismoniy emas, balki aqliy qobiliyatlarini talab qiladi.<sup>1</sup> Buning sababi, murakkablik va nochizqlik butun dunyo bo‘ylab tashkilotlarning zamonaviy biznesining o‘ziga xos xususiyatlariga aylanayotganidir. Charlz Xandi ta’kidlaganidek, "bilim va nou-xaularni egallash hamda ulardan foydalanish qobiliyati boylikning yangi manbai hisoblanadi."<sup>2</sup> Hozirgi sharoitda intellektual aktivlar moddiy aktivlardan yuqori baholanmoqda. Inson imkoniyatlarining xususiyatlari va chegaralarini, ularni qanday rivojlantirish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali qanday boshqarish kerakligini tushunadigan kompaniyalar muvaffaqiyatli tashkilotlarga aylanmoqda.<sup>3</sup>

Muvaffaqiyatli tashkilotlar bilimlar va asosiy kompetensiyalar asosida o‘zaro raqobatlashadi, ammo bilimlar uzoq muddat saqlanib qolmaydi. Shuning uchun ularni doimiy ravishda takomillashtirish zarur. P. Drukerning ta’kidlashicha, XXI asrda "oqilona tashkil etishga asoslangan" korxonalar "bilim va axborotga asoslangan" korxonalariga o‘tish yuz bergan. Ko‘rinib turibdiki, har bir tashkilot turli yo‘llar bilan birlashadigan, o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan, rivojlanadigan va tarqaladigan bilimlarga ehtiyoj sezadi. Bu bilimlar korxonaning tayanch resursiga aylanadi. Bilimlarni rivojlantirishning asosiy jarayoni odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirdir. Bu jarayon tashkilotning ijtimoiy salohiyatini belgilaydi, ya’ni "ijtimoiy munosabatlar tarmog‘i"ni shakllantiradi. Bu tarmoq ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun qimmatli resurs hisoblanadi.<sup>4</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil, solishtiruv metodi, empirik tadqiqot va kvalifikatsion tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda tashkilotlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish ko‘p jihatdan ularning intellektual resurslaridan samarali foydalanishini talab etadi. Chunki intellektual kapital, ya’ni bilim, tajriba, innovatsiyalar va boshqa nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarishning muhim resursi hisoblanadi. Axborot texnologiyalari yordamida yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun bilim va innovatsiyalarni to‘g‘ri boshqarish zarur bo‘lib, bunday boshqaruv faoliyati intellektual kapitalni boshqarishning yangi tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Intellektual kapitalni boshqarishda, tashkilotlar o‘zlarining bilim va innovatsiyalarini samarali ravishda tarqatish va rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar yaratishlari zarur. Bu, o‘z navbatida, tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi va yangi bozorlar uchun imkoniyatlar yaratadi. Boshqaruv tamoyillarini amalga oshirishda, tashkilotlarning barcha bo‘limlari o‘rtasidagi uzviy aloqa va bilim almashish jarayonlarining integratsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Intellektual resurslarni boshqarishning samaradorligini baholash, tashkilotlarning intellektual kapitalidan maksimal darajada foydalanishga yordam beradi. Bu esa o‘z-o‘zidan kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi va barqaror o‘shishiga xizmat qiladi. Shuning uchun, intellektual resurslarni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari, tashkilotning ilmiy va amaliy ishlanmalarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi zamonaviy iqtisodiyot da intellektual resurslar tashkilotlarning eng qimmatli aktivlariga aylangan. Tashkilotlar o‘zlarining raqobatbardoshligini saqlab qolish va yangi imkoniyatlarga erishish uchun bilim, tajriba va innovatsiyalarni samarali boshqarish zarur.

<sup>1</sup> Акмаева Р.М. Трансформация российских предприятия в самообучающиеся организации как необходимое условие экономической синергетики [Электронный ресурс] - Режим доступа — URL: [lilprv^isa.ru/euTu/node/450?destination=noile%21:450](http://lilprv^isa.ru/euTu/node/450?destination=noile%21:450)

<sup>2</sup> Hندی C. The empty raincoat - Great Britain: Arrow Books. - 1994. -p. 304

<sup>3</sup> Чоудхари С. Менеджмент XXI века: когда-нибудь мы все будем так управлять [Текст] / С. Чоудхари // М.: ИНФРА-М.- 2009. -54с.

<sup>4</sup> Nahpiet. J. Social capital, intellectual capital and the organizational advantage /J. Nahpiet. S. Gobhal // AcademjofivlanagementReview. — 1998. - p.66

Intellectual kapitalni boshqarishning samaradorligi tashkilotning strategik muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Intellectual resurslarni boshqarish, ularning optimallashtirilgan foydalanilishi orqali kompaniyaga yangi mahsulot va xizmatlar yaratish imkoniyatlarini beradi, bu esa bozorga yangiliklar kiritish va raqobatni kuchaytirish imkonini yaratadi.

Korxonalarda intellectual kapitalni boshqarishning quyidagi tamoyillaridan foydalanishi samaradorlik ko'rsatkichlariniyuqorilashishiga ta'sir ko'rsatadi.

- Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili. Boshqaruv tizimi tashkilotning barcha bo'limlarini umumiy maqsadga yo'naltiradi. Bu tamoyil asosida barcha intellectual resurslar o'zaro moslashgan tizimda ishlaydi, natijada maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

- Uzluksizlik va ishonchlilik tamoyili. Intellectual kapital samarali boshqarilishi uchun tashkilotda barqaror va uzluksiz faoliyat muhitini yaratish zarur. Bunda teskari aloqaning o'rnatilishi, jarayonlarning doimiy monitoringi va tahlilga asoslangan boshqaruv amalga oshiriladi.

- Rejalilik tamoyili. Intellectual kapitalni boshqarish faqat joriy vazifalarni emas, balki uzoq muddatli strategik rejalashtirishni ham o'z ichiga oladi. Boshqaruv tizimi intellectual resurslarni rivojlantirishni rejalashtirib, tashkilotning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga xizmat qiladi.

- Moslashuvchanlik tamoyili. Bozordagi o'zgarishlar va ichki muhitdagi talablar asosida boshqaruv tizimi moslashuvchan bo'lishi kerak. Boshqaruv tizimining tashqi va ichki o'zgarishlarga tez va samarali javob berish qobiliyati tashkilotning raqobatbardoshligini saqlashga yordam beradi.

- Boshqaruv samaradorligi tamoyili. Intellectual kapitalni boshqarishning samaradorligini baholash uchun ko'plab variantlardan eng yaxshisini tanlash zarur. Bunda ko'rsatkichlar va natijalar asosida o'zgarishlar kiritish orqali boshqaruv tizimi optimallashtiriladi.

- Ilmiy asoslangan boshqaruv tamoyili. Intellectual kapitalni boshqarish usullari ilmiy asosda ishlab chiqilishi va amaliyotda sinovdan o'tgan bo'lishi kerak. Boshqaruv usullari, shakllari va vositalari ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanishi zarur.

Bundan tashqari, intellectual resurslarni boshqarish jarayonida **motivatsion mexanizmning** o'rni katta. Intellectual mehnatning motivatsiyasi xodimlarni ijodiy faoliyatga undaydi va ularning ishlashga bo'lgan intilishlarini oshiradi. Bu mexanizm tashkilotda bilim almashish, yangi g'oyalar yaratish va innovatsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

Intellectual resurslarni boshqarish samaradorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Sifatli va miqdoriy natijalar. Intellectual kapitaldan foydalanishning samaradorligi, uning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Bu ko'rsatkichlar kompaniyaning rivojlanishiga ta'sir etadigan omillarni aniqlashga yordam beradi.

2. Takroriy ishlab chiqarish. Intellectual resurslarning takroran ishlab chiqarilishi va samarali qayta foydalanish imkoniyati tashkilotning o'sishiga hissa qo'shadi.


3. Inovatsion daromadlar. Intellectual resurslarni boshqarish orqali yangi mahsulotlar yoki xizmatlar ishlab chiqish va sotishdan olinadigan daromadlar o'lanadi.

Shu bilan birga, intellectual kapitalni boshqarish samaradorligi tashkilotning umumiy rivojlanish strategiyasi va uzoq muddatli o'sish maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish va uning bozor ulushini kengaytirish uchun intellectual resurslarni boshqarishning tizimli yondoshuvi zarur.

Intellectual resurslarni boshqarish samaradorligini baholash asosida shaxsiylashtirilgan intellectual kapitaldan foydalanish va uni takror ishlab chiqarishning sifat va miqdoriy natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish yotishi lozim. Ushbu ko'rsatkichlarni guruhlash mumkin (1-rasm).

Xodimlarning ijodiy faolligi darajasi har biri bir yil ichida kamida bitta irqiy taklif yoki ixtiro ishlab chiqqan yoki patent olgan xodimlar soni xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga nisbatan hisoblanadi. Xodimlar ijodiy faolligining o'sish koeffitsiyenti uni dinamikada tavsiflaydi.

Xodimlar ijodiy faolligining nominal natijaviylik darajasi yil yakunlari bo'yicha xodimlar tomonidan taklif etilgan ixtirolar, patentlar, ixtirolar sonining xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi



**1-rasm - Intellectual resurslarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlari**

soniga nisbati sifatida aniqlanadi.

Xodimlar ijodiy faolligining real natijadorlik darajasi xodimlar tomonidan bir yil davomida joriy etilgan yoki sotilgan ixtirolar, patentlar, ixtirolar sonining xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga nisbati sifatida hisoblanadi. Xodimlar ijodiy faolligi real natijadorligining o'sish koeffitsiyenti uni dinamikada tavsiflaydi.

Xodimlarni rivojlantirishga qo'yilgan mablag'lardan olinadigan daromad ishlab chiqarish jarayoniga ixtirolar, ixtirochilik takliflari, intellektual mahsulotlarni chet tashkilotlarga sotish va shu kabilarni joriy etish hisobiga olinadigan qo'shimcha daromadning yillik hajmini tegishli kasbiy-malaka darajasigacha tayyorlash qiymatini, mehnatga haq to'lash xarajatlarini, bilimlarning ma'naviy eskirishini chegirib tashlagan holda malaka oshirish qiymatini o'z ichiga oladigan shaxsiylashtirilgan intellektual kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida hisoblanadi, so'm/birlik. Xodimlarni rivojlantirishga sarflangan mablag'lar qaytimining o'sish koeffitsiyenti uni dinamikada tavsiflaydi.

Intellectual resurslar rentabelligi xodimning ixtiro taklifi, ixtiro yoki patentini joriy etishdan olingan foyda (iqtisod) ning uning mehnatiga haq to'lash, malakasini oshirish, tayyorlash yoki qayta tayyorlash va boshqa xarajatlarga, rag'batlantirishga nisbati sifatida hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy iqtisodiyotda intellektual resurslarning o‘zida borayotgan roli, tashkilotlarning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylangan. Intellektual kapitalni boshqarishning samaradorligi nafaqat tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish, balki uning bozorga ta’sirini kuchaytirish va innovatsion faoliyatini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Boshqaruvning maqsadga yo‘naltirilganligi, uzluksizligi, ilmiy asoslanganligi va moslashuvchanligi kabi tamoyillar intellektual resurslardan maksimal darajada foydalanishni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Bunday boshqaruv tizimi nafaqat joriy, balki uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Intellektual resurslarni samarali boshqarish uchun kompaniyalar o‘z xodimlarining bilim va innovatsiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Shuningdek, intellektual mehnatning motivatsion mexanizmlarini yaratish, bilim almashish tizimini mustahkamlash va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ijobiy ish muhitini ta’minlash muhimdir.

Tashkilot intellektual resurslarini samarali boshqarish uchun quyidagilaklarni taklif sifatida kiritishimiz mumkin:

- intellektual resurslarni boshqarish tizimini rivojlantirish.
- ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.
- xodimlarni motivatsiya qilish.
- integratsiyalashgan boshqaruv tizimi yaratish
- bilim almashish va o‘rganish tizimlarini mustahkamlash
- ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimini joriy etish.

Shu tariqa, intellektual resurslarni boshqarish jarayonini optimallashtirish va rivojlantirish, tashkilotlarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish, faqatgina raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilib qolmay, balki innovatsiyalarni joriy etish orqali jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kuchayishiga ham olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 23-dekabr 2017-yil
2. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU.-T.:Iqtisod va moliya, 2014.226 bet
3. Кузьмина С.Н. Управление интеллектуальными ресурсами как основа повышения эффективности деятельности организации // Проблемы современной экономики. 2011. №4. С.416-419.
4. Чичерин Ю.А., Жугин А.В. Типология и иерархия задач управления интеллектуально-креативными ресурсами в рамках развития кадрового потенциала организации // Современные наукоемкие технологии. 2014. №7-1. С.101-104

<p><b>Г.Абдувахидова</b></p> <p><b>Принципы управления интеллектуальными ресурсами организации</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье определена актуальность управления интеллектуальными ресурсами для организаций в современных условиях глобализации экономики, рассматриваются принципы управления интеллектуальными ресурсами, а так же определяются основные показатели эффективности управления интеллектуальным капиталом.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> интеллектуальные ресурсы, знания, принципы управления, эффективность управления, интеллектуальная деятельность, квалификация персонала, конкурентоспособность, интеллектуальный потенциал.</p>	<p><b>G.Abduvakhidova</b></p> <p><b>Principles of managing the intellectual resources of an organization</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article defines the relevance of intellectual resource management for organizations in the modern conditions of economic globalization, examines the principles of intellectual resource management, and also defines the main indicators of the effectiveness of intellectual capital management.</p> <p><b>Keywords:</b> intellectual resources, knowledge, management principles, management efficiency, intellectual activity, personnel qualifications, competitiveness, intellectual potential.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.